

YURT OBODONCHILIGI YO'LIDA (Sohibqiron davri qurilishlari tarixidan ayrim qiziqarli lavhalar)

Madrimova Munajat Axmadjonovna

*Xorazm viloyati, Urganch shahri
29-umumiy o'rta ta'lim maktabining
tarix fani o'qituvchisi*

Matyakubova Soxiba O'rinboy qizi

*Xorazm viloyati, Urganch shahri
29-umumiy o'rta ta'lim maktabining
tarix fani o'qituvchisi*

Аннотация

Ushbu maqola orqali buyuk bobokalonimiz, Sohibqiron Amir Temurning yurt obodonchiligi yo'lida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, me'morchilik rivojiga qo'shgan ulkan hissasi, tarixiy faktlar hamda manbalar asosida yoritilib berilgan.

Аннотация

Благодаря этой статье наш передед, большой вклад Амира Темура в развитие страны, основанный на исторических фактах и источниках.

Annotation

This article is based on historical facts, the great contribution of our great ancestor Amir Temur to the welfare of the country and development of architecture.

Kalit so'zlar: Hisor, langarxona, dor-ul imorat, Ali Yazdiy, Yakubovskiy, shahriston, temuriylar renessansi, kufiy, handasaviy, devoniy.

Ключевые слова: Гуссар, лангархана, дар-ул имарат, Али Язди, Якубовский, шахристан, тимуридский ренессанс, куфи, хандасави, дивани

Key words: Hisor, langarxana, dar ul-imarate, Ali Yazdi, Yakubovski, shahristan, timurid renaissance, kufi, handasavi, divani.

Amir Temur va Temuriylar davridan bizning kunlarga saqlanib qolgan muhtasham san'at obidalari o'z davrida sohibqiron homiyligida mamlakatda me'morlik va shaharsozlik g'oyat rivojlanganligidan dalolat beradi. Bu davrda me'morchilik ayniqsa ravnaq topdi. Sohibqironning bunyodkorlik so'zlariga quloq bering: "Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurilishi, yo'lovchi musofirlar uchun yo'l ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga ko'priklar qurishni buyurdim". Yana bir o'rinda Amir Temur takidlaydi: "...yana amr etdimki, katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar,

faqir-u miskinlarga langarxona(musofirxona) solsinlar. Ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar. Har bir shaharda dor-ul-imorat (hukmdor saroyi) qursinlar!”¹

Sohibqiron bobomizning mamlakat obodonchiligiga bo’lgan e’tibori, bu yo’lda olib borilgan tadbirlarni quyidagi so’zlar yana bir bor tasdiqlaydi, tarixchi Sharafiddin Ali Yozdiyning guvohlik berishicha, Amir Temur “Obodonchilikka yaraydigan biror qarich yerning ham uvol bo’lishini ravo ko’rmasdi”.

Amir Temurni boshqa hukumdorlardan ajratib turadigan jihati ham aynan obodonchilik ishlarini olib borib, din-u diyonatga, ilm-u marifatga homiylik qilganligidadir. Uning qay bir joydan bir g’isht olsam, o’rniga o’n g’isht qo’ydim, bir daraxt kestirsam, o’nta ko’chat ektirdim” - degan so’zlari fikrimizning ham fikrimizning yaqqol dalilidir. Eng muhimi mazkur qurilishlar geografiyasi birgina Turkiston bilan chegaralanib qolgan emas. Buning isboti sifatida sohibqiron qadami yetgan joylardagi tarixiy obidalarini eslashning o’zi kifoya.²

O’z sohasida kamolatga intilish temuriylar davri hunarmandchiligining asosiy xususiyatiga aylandi. Bu ayniqsa, me’morchilikda yaqqol namoyon bo’ldi. Buni biz Samarqand va Mavarounnahrning boshqa ko’plab shaharlarda amalga oshirilgan beqiyos qurilish ishlari orqali bilishimiz mumkin. Bunda avvalambor shahar qurilishida istehkomlar barpo qilish, shoh ko’chalarini tartibga solish, aniq uyishtirilgan me’moriy majmualar yaratish bo’yicha ulkan tadbirlar amalga oshirildi. Shu yo’nalishdagi asosiy ishlar Samarqandda jamlandi. “Amir Temur va uning eng yaqin vorislari davri o’z xususiyatiga ko’ra, Samarqand shahrining odatdan tashqari ildam rivojlanish davridir. Tashqi bezaklarga boy ajoyib, muhtasham me’morchilik obidalarining aksariyati xuddi shu davrga mansubdir”-deya ta’kidlaydi Yakubovskiy.³

Temur va temuriylar davrida shaharlarning asosiy qismi “Hisor” deb atalgan va bu atama o’rta asrlarda mo’g’ullar davrigacha bo’lgan “Shahriston” tushunchasidan farq qiladi. Zotan, Hisor shaharning asosiy qurilishlari va savdo-hunarmandchilik sohalarini o’z ichiga olgan yoki umuman yangi joyda vujudga kelgan, lekin baribir me’moriy jihatdan o’zaro uyg’un bo’lgan asosiy ma’muriy va mafkuraviy bo’g’inlarni o’zida jamlagan. Katta-kichik shaharlarning histori har xil, ammo ahamiyati va vazifasi bir xil. Biroq saltanatning asosiy siyosiy, iqtisodiy madaniy markazi Samarqand edi, uni bezatishga Amir Temur alohida ahamiyat bergan, shahar histori ham shunga yarasha edi. Temur muarrixlaridan birining yozishicha, u poytaxtni bag’oyat xushmanzara, jannatmonand yerda joylashgan Samarqandga ko’chirgan. Ajoyib dashtlari, go’zal daraxtzorlari, maftunkor inshootlari, so’lim kanallari bo’lgan bu beqiyos shahar saltanatning noyob javohiri va boshqa shahr-u qishloqlar havas qilgudek maskanni, davlatni boshqaruv markaziga aylantirib, poytaxt qildi, qal’a va hisor qurishni buyurdi.

¹ Саидкосимов С., Ахмедов А., Ахмедов Б. *Амир Темур жахон тарихида* Т.: Шарқ 2001-й 146-б

² Каримов И.А. *Амир Темур фахримиз гуруримиз* Т.: Узбекистон 1998-й 64-б.

³ Саидкосимов С., Ахмедов А., Ахмедов Б. *Амир Темур жахон тарихида* Т.: Шарқ 2001-й 147-б

Temur va temuriylar davrida me'morchilik avvalgi davrdan ko'p narsa olgan holda o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi. Bunga yordam bergan omillar esa yangi, goho mahobatli binolarni bunyod etish, ulkan hududning turli chekkalaridan keltirilgan me'morlarning ijodiy kuchlarini yagona davlat doirasida birlashtirish va nihoyat, "davr ruhi" – bir qator tadqiqotchilarni "temuriylar renessansi" haqida so'z yuritishga undagan o'ziga xos jihatlardan iborat bo'ldi. Me'morchilik hamisha, aniq vazifani hajmiy-fazoviy tarzda mujassamlashtirish orqali hal etib keladi. Biroq faqat foyda olishni ko'zlovchi qurilishdan farqli o'laroq haqiqiy me'morchilik hatto sof amaliy, kundalik turmush xarakteriga ega bo'lgan binolarga ham badiiy-obrazli timsol baxsh etadi. Ana shu jihatdan temuriylar davrining me'moriy san'ati avvalgi asrlarga nisbatan rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarildi. Bu yangilik dadil muhandislik – texnik vazifalar qo'yishda, yangicha yechimlarni ishlab chiqishda, me'moriy bezaklarga boyligida ko'rinadi.

Me'moriy inshootlarni bezatishda epigrafika ulkan ahamiyatga ega. Handasaviy naqshga nihoyatda yaqinlashtirilgan "kufiy" xati, ulug'vor devoriy girihlarda, shuningdek, poy gumbazlarni gir aylantirib o'rab olgan yozuvlarda qo'llangan. Hoshiya peshtoq bitiklarida birinchi bosqichda kitob xattotligiga yaqin bo'lgan "devoniy" xati qo'llangan, keyin esa "suls" xati yetakchi o'rin egalladi, chunki unga chiziqlar uzunligi, tik harflar (alif, kof, lom) chiziqiqligi va harflarning ikki-uch qator joylashuvi xos. Bitiklar odatda ko'k fonda oq harflar bilan yozilgan, ba'zan ustidan oltin suvi yuritilgan, ko'pincha unga parallel ravishda unchalik baland bo'lmagan kufiy xatida sariq satr chizilgan. Yirik spiralsimon novdadan yaproqlar va gullar taralib turgan shakl "suls" xati uchun fon bo'lib xizmat qilgan. Temur va temuriylar davrining hashamatli me'morchiligida binolar ichining bezagi ham benihoya boy va xilma-xil edi. Bu o'rinda koshinlar ahyon-ahyonda sahn va mehrob qoplamasida ishlatilgan, xolos.

Devor va shift, hatto gumbaz ham naqsh bilan ziynatlangan. Temur davri inshootlarida ko'k va zarhal ranglar ustun bo'lgan dabdabali naqsh hukmron edi. Ijtimoiy-diniy ahamiyatga ega bo'lgan masjid, madrasa, maqbara yoki dunyoviy hokimiyatning timsoliga aylangan hukmdorlarning saroylari va aslzodalarning qarorgohlari singari inshootlarda temuriylar davri me'morchiligining eng yuksak yutuqlari namoyon bo'ladi. Yirik shahar va islom rivojlangan joylarda, ayniqsa, eng yaxshi ijodiy kuchlar jamul-jam bo'lgan poytaxt-Samarqandda va keyin Hirotda juda yaqqol ko'zga tashlanadi. Temur davrida inshootlarning ko'lami ortishi ko'p jihatdan yakka hukmdorning irodasiga bog'liq bo'ldi. Zotan, uning uchun shakl mahobatli bo'lishi Temurning qudrati va hokimiyatini ulug'lash vositasi edi. Ayni paytda bu jarayon muhandislar, me'morlar va bezak ustalari oldiga yangi – yangi vazifalarni qo'yib, ularni amalga oshirishni talab qilardi. Klavixoning guvohlik berishicha, Samarqandga kelib Go'ri Amir maqbarasining qurilishi bilan tanishganida Amir

Temur uning yuksakligidan qoniqmagani va binokorlar gumbazni shoshilinch ravishda qayta qurishga kirishib, uni ko'tarib turuvchi poy gumbazning balandligini yanada oshirgan. O'shanda jome masjidining asosiy peshtoqi ham Temurga yetarlicha ulug'vor bo'lib ko'rinmagan va uni qayta qurishni buyurgan.⁴ Ko'chma va yig'ma binolar asosida me'moriy konstruksiyalarning yangi imkoniyatlari sinovdan o'tkazilib, so'ngra keng qo'llanishga tavsiya etilardi. Amir Temurning bunday yig'ma masjidlarni hayrat bilan tomosha qilgan Klavixo: "...masjid shunday qurilgan ediki, zarur hollarda uni bo'laklarga ajratib, taxlab qo'yish ham mumkin", – deydi.

G'ishtin binolarda ravoq, gumbaz asosidagi konstruksiyalar keng qo'llanilgan, katta sahnalar usti iloji boricha berkitilgan. Amir Temur davri me'morchiligida baland toq-u ravoqlarni kuzatar ekanmiz, SHarafiddin Ali Yazdiyning: "Agar osmon gumbazi bo'lmaganda masjid gumbazi olamda yagona bo'lar edi", – degan so'zi yodga tushadi.⁵ Sohibqironning me'moriy bunyodkorligi sohasidagi beqiyos ishlarini Shahrisabz, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Turkiston shaharlarida hozirgacha saqlanib qolgan noyob va nodir obidalar misolida ko'rib turibmiz. Temuriylar davridagi bunday ulkan bunyodkorlik jarayoni natijasi o'laroq keng ko'lamda me'morlik mo'jizalari yaratilgani fikrimiz dalilidir. Me'moriy mo'jiza hisoblangan muhtasham Oqsaroy majmui haqida Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo sinchkovlik bilan yozib qoldirgan taassurotlar me'morchilik tarixi uchun yagona guvoh – hujjat bo'lib qolmoqda: Saroyga kirish joyi juda uzun va darvozasi juda baland, shu yerning o'zida, kiraverishdagi o'ng va chap tomonlarida koshinkor bezatilgan g'ishtin ravoqlar joylashgan. Bu ravoqlar ichi dahliz eshiksiz kichik xonalar, koshinkor sathli supalar bor. Darvozadan o'tganda boshqasi ko'zga tashlanadi, uning ortida esa oq toshtaxtalar to'shalgan katta hovli, atrofi hashamatli bezatilgan ayvonlar bilan qurshalgan, hovli o'rtasida katta hovuz bor. Hovlining kengligi chamasi uch yuz qadam. Oqsaroy peshtoqining mahobatiga mahliyo bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur "Muncha oliy toq olamda kam nishon berurlar. Derlarkim, Kisro toqidin bu buyukroqdir", – degan edi. Chindan ham, Markaziy Osiyo me'morchiligida bunday buyuk bino bo'lmagan. Oqsaroy Markaziy Osiyo me'morchiligida xalq me'morlari ijodining eng yuksak cho'qqisi sifatida so'nmas iste'dod va me'moriy izlanishlar namunasi bo'lib qoldi.

Amir Temur bunyod ettirgan ikkinchi ulkan imorat Ko'ksaroy nomi bilan mashhur. Shaharning kun botar tomonidagi qal'a – Arki Oliy qiyofasi ancha o'zgardi. Amir Temur bu yerda atrofi mustahkam o'ralgan qal'a bunyod ettirdi, mahobatli darvozaxonalar qurdirdi, qal'a ichiga suv keltirdi. Bu yerda qad ko'targan "to'rt oshyonlik" Ko'ksaroy har jihatdan ajralib turadi. Saroy tevaragini latif Bo'stonsaroy

⁴Аскарлов А. Темур ва Улугбек Т.: Академия 1997-й 174-б.

⁵ Саидкосимов С., Ахмедов А., Ахмедов Б. Амир Темур жахон тарихида Т.: Шарқ 2001-й 148-б

bog'i qurshab turgan. Ko'ksaroyning ko'p qavatli ulkan imorat bo'lganligi uning naqadar ulug'vor, mahobatli va noyob ekanligida darak beradi.⁶

Xulosa tarzida shuni aytish kerakki, bu davrda ya'ni Temur va temuriylar davrida yurt obodonchiligi yo'lida ko'plab tadbirlar amalga oshirildi. Barcha sohalar singari me'morchilik ham rivojlandi. Milsiz bunyodkorlik ishlari olib borildiki, buning natijasida go'zal shaharlar, so'lim bog'lar, masjid, madrasa-yu maqbaralar barpo qilinishi, Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha qishloqlarning sharqning mashhur shaharlari nomlari bilan atalishi, bu davr me'morchiligiga jahon davlatlarining tan berishi, bu davlatga kelgan elchilarning hayrati va ta'riflari buni tasdiqlaydi. Ana shunday buyuk me'moriy yodgorliklar sarkori bo'lgan bobomizning quyidagi so'zlariga e'tibor bermaslikning iloji yo'q: "Agar bizning qudratimizni bilmoqchi bo'lsangiz, qurgan binolarimizga boqing", deganda Amir Temur, eng avvalo, o'z xalqiga, kelajak avlodlariga murojaat qilgan, desak yanglishmagan bo'lamiz.

⁶ Саидкосимов С., Ахмедов А., Ахмедов Б. Амир Темур жахон тарихида Т.: Шарк 2001-й 149-1516